

# TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

## Korxona va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

**Ro'yxatdan o'tgan korxonalar**

**104 831**  
114,6 %

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar**

**99 900**  
114,4 %

YANGI


**Yangi tashkil etilgan korxonalar  
(2021-yilda)**

**4 692**  
101,6 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha)

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

4



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-mart oylarida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(yanvar-mart oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)




*Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **4,3** foizga oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



## Oilaviy korxonalar

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



### Xususiy korxonalar




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



*Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,6** foizga oshdi*



## Kichik tadbirkorlik subyektlari

**15,0**  
foizga  
oshdi

## Mikrofirmalar

6  
589  
2020- y.

7  
512  
2021- y.

## Kichik korxonalar

421  
547  
2020- y.  
2021- y.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

**17,8**  
foizga  
oshdi


## Oilaviy korxonalar

1,2  
martaga  
oshdi

42  
50  
2020- y.  
2021- y.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

O'tgan yilga nisbatan  
**12,8** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar


2020- y.  
652  
2021- y.  
638

O'tgan yilga nisbatan  
**2,1** foizga pasaydi




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



## Oilaviy korxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## 2 385

## Xususiy korxonalar




## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- aprel holatiga ko'ra 3,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 16,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 mingtaga yoki 16,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 143 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 41 taga yoki 22,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning tumanlar kesimidagi soni (2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra 7,5 ming tani tashkil etib, ulardan 7,2 mingtasi yoki 96,3 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,8 mingtaga yoki 112,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-mart oylarida 367 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-mart oylarida, birlikda)



**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

**12**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>1 310</b>	<b>694</b>	<b>616</b>
<b>Qozog'iston Respublikasi</b>	<b>691</b>	<b>300</b>	<b>391</b>
<b>Ozarbayjon Respublikasi</b>	<b>158</b>	<b>52</b>	<b>106</b>
<b>Ukraina Respublikasi</b>	<b>111</b>	<b>53</b>	<b>58</b>
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>92</b>	<b>36</b>	<b>56</b>
<b>Tojikiston Respublikasi</b>	<b>86</b>	<b>36</b>	<b>50</b>
<b>Turkmaniston Respublikasi</b>	<b>59</b>	<b>23</b>	<b>36</b>
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>57</b>	<b>26</b>	<b>31</b>
<b>Armaniston Respublikasi</b>	<b>24</b>	<b>15</b>	<b>9</b>
<b>Moldova Respublikasi</b>	<b>17</b>	<b>5</b>	<b>12</b>

# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**

(2021- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

14


	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
<b>Toshkent shahri</b>	<b>7 226</b>	<b>2 949</b>	<b>4 277</b>
<i>tumanlar:</i>			
<b>Uchtepa</b>	233	84	149
<b>Bektemir</b>	164	91	73
<b>Yunusobod</b>	920	386	534
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	919	388	531
<b>Mirobod</b>	1 230	393	837
<b>Shayxontohur</b>	495	238	257
<b>Olmazor</b>	386	208	178
<b>Sirg'ali</b>	245	119	126
<b>Yakkasaroy</b>	1 161	431	730
<b>Yashnobod</b>	572	254	318
<b>Yangihayot</b>	88	48	40
<b>Chilonzor</b>	813	309	504

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Mirobod – 1 230 ta (umumiyligi miqdorida ulushi 17,0 %), Yakkasaroy – 1 16 ta (16,1 %) hamda Yunusobod tumanlarida 920 tani (12,7 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning eng kam qismi Uchtepa – 233 ta (3,2 %), Bektemir 164 ta (2,3 %) hamda Yangihayot 88 tani (1,2 %) tashkil etgan.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

15




2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (13,1 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,1 %), Olmazor – (10,2 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (9,1 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (7,8 %), Sirg'ali – (4,9 %), Bektemir – (2,3 %) hamda Yangihayot tumanlarida (1,9 %) tashkil etgan.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021- yil yanvar-mart oylarida, birlikda)


2021- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (13,6 %), Yunusobod – (11,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,7 %), Olmazor – (9,9 %), Shayxontohur – (9,7 %), Uchtepa – (9,0 %), Yashnobod – (8,3 %), Mirobod – (8,0 %), Yakkasaroy – (7,6 %), Sirg'ali – (6,0 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,4 %) tashkil etgan.



# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining tumanlar bo'yicha soni

(2021- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)


16



2021- yilning yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yashnobod – (16,1 %), Uchtepa – (12,6 %), Sirg'ali – (11,2 %), Mirzo Ulug'bek – (10,5 %), Shayxontohur – (9,1 %), Chilonzor – (8,4 %), Yunusobod – (8,4 %), Olmazor – (7,0 %), Yakkasaroy – (6,2 %), Yangihayot – (5,6 %), Mirobod – (3,5 %) hamda Bektemir tumanlarida (1,4 %) tashkil etgan.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-mart oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnama tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

The screenshot shows the homepage of the State Statistics Committee of Uzbekistan. At the top, there are language options (O'zbek, Русский, English), a search bar, and social media links. The main title is "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI". Below the title, there are several menu items: ASOSIY SAHIFA, QO'MITA HAQIDA, AXBOROT XIZMATI, INTERAKTIV XIZMATLAR, OCHIQ MA'LUMOTLAR, MUROJAATLAR, and KONTAKTLAR. A central search form is open, showing a dropdown menu for "Xizmatlar ro'yxati" (List of services) with options like "Elektron hisobot", "KTYaDR ma'lumotlari", "Usulby materiallar", "Statistik klassifikatsiyalar", "Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati", and "Korxona pasporti". To the left, there's a sidebar titled "RASMIY STATISTIKA" with links to various statistical reports. To the right, there's a section titled "FOYDALI MA'LUMOTLAR" with links to reports like "Aholini ro'yxtarga olish-2022" and "Harakatlar strategiyasi".

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'r salayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

## Toshkent shahar statistika boshqarmasi

**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**tel.: 71 203-88-31**